

_____ - sonli KREDIT SHARTNOMASI

Toshkent sh.

«_____» _____ 20__ y.

Kreditning to'liq qiymati: _____ (_____) yillik foiz	Shartnoma tuzilgan sanadagi kreditning to'liq qiymati: _____ (so'z bilan) so'm Kredit summasi _____ _____ (so'z bilan) so'm Foizlar summasi _____ _____ (so'z bilan) so'm Boshqa to'lovlar summasi _____ _____ (so'z bilan) so'm
---	---

“Octobank” AJ, bundan keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi, nomidan _____.20__ yildagi ____ - sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi Amaliyot boshqarmasi boshlig‘i _____ bir tomondan, va bundan buyon «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi, _____.20__ yilda _____ tomonidan berilgan pasport seriyasi: _____ bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi _____, ikkinchi tomondan, mazkur Kredit shartnomasini (bundan buyon matnda Shartnoma) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchiga ipoteka krediti ajratadi, Qarz oluvchi esa olingan summani Bankka to'liq hajmda qaytarish va undan foydalanganlik uchun foizlarni mazkur Shartnoma shartlari asosida to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Kredit qaytarilishi, to'lovliligi, ta'minlanganligi, muddatlilik va maqsadli foydalanilishi shartlari asosida ajratiladi.

1.3. Kredit obyekti/Kreditdan maqsadli foydalanish:

_____ ga tegishli bo‘lgan, _____
_____ manzilida joylashgan, umumiy qiymati _____
(_____) so'mni _____ tashkil etuvchi
_____ (turar _____ joy _____ /xonadon).

1.4. Kredit ajratilgan sana — Bank tomonidan pul mablag‘lari Qarz oluvchining ssuda hisobvarag‘idan sotuvchining _____ bank _____ hisobvarag‘iga o‘tkazilgan sana _____ hisoblanadi.

1.5. _____ Asosiy _____ tushunchalar:

1.5.1. Aksiya ishtirokchisi — jismoniy shaxs — Bank xodimi yoki mazkur Shartnoma tuzilgan sanada ish haqini ish haqi loyihasi doirasida Bank tomonidan chiqarilgan bank kartasiga oladigan Bank korporativ _____ mijozining _____ xodimi.

1.5.2. Aksiya — Qarz oluvchi Aksiya qoidalari shartlariga rioya qilgan taqdirda, kredit bo'yicha Aksiya foiz _____ stavkasini _____ qo'llashni _____ nazarda tutuvchi _____ Bank taklifi.

1.5.3. Aksiya qoidalari — jismoniy shaxslarning Aksiyada ishtirok etish shartlari, kredit shartnomasi

bo'yicha Aksiya foiz stavkasini taqdim etish tartibi, shuningdek, Aksiya foiz stavkasini qo'llash huquqini yo'qotish asoslari va tartibi.

1.5.4. Foizlar — mazkur Shartnomaning 2.1.5 va 2.1.6-bandlarida ko'rsatilgan bazaviy yoki aksiya foiz stavkasi.

2. KREDIT AJRATISH VA UNI SO'NDIRISH TARTIBI

2.1. Kredit quyidagi shartlar asosida ajratiladi:

2.1.1. Kredit summasi: _____ (_____) so'm;

2.1.2. Kredit muddati: _____ (_____) oy;

2.1.3. Kredit valyutasi: O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi;

2.1.4. Ajratish muddati: Bank tomonidan ariza ma'qullanganidan keyin 10 ish kunidan oshmagan muddatda;

2.1.5. Bazaviy stavka: yillik _____ % (_____) foiz) — Aksiya ishtirokchisi bo'lmagan yoki Aksiya qoidalarida nazarda tutilgan tartib va shartlar asosida Aksiya ishtirokchisi maqomini yo'qotgan Qarz oluvchilar uchun qo'llaniladi.

2.1.6. Aksiya stavkasi: yillik _____ % (_____) foiz) — Aksiya ishtirokchisi bo'lgan Qarz oluvchi uchun qo'llaniladi;

2.1.7. Foiz stavkasi miqdorini Aksiya stavkasidan Bazaviy stavkaga o'zgartirish Aksiya qoidalariga muvofiq, Bankka Qarz oluvchining Aksiya ishtirokchisi maqomini yo'qotganligi ma'lum bo'lgan ish kunidan keyingi ish kunidan boshlab amalga oshiriladi. Qarz oluvchi mazkur Shartnomani imzolash orqali Bazaviy stavkani qo'llashning bunday shartiga o'zining so'zsiz roziligini bildiradi va uni bajarilishi majburiy deb tan oladi. Agar Qarz oluvchi Aksiya ishtirokchisi maqomini mazkur Shartnoma tuzilganidan keyin qo'lga kiritgan bo'lsa, foiz stavkasi miqdori Bazaviy stavkadan Aksiya stavkasiga o'zgartirilishi mumkin emas.

2.1.8. Foiz stavkasi turi: qat'iy belgilangan;

2.1.9. So'ndirish tartibi: So'ndirish jadvaliga (1-ilova) muvofiq annuitet usulida.

2.1.10. Qarz oluvchining boshlang'ich badali _____ (_____) so'mni tashkil etadi, bu sotib olinayotgan obyekt qiymatining _____ foiziga teng. Boshlang'ich badal _____ bankidagi _____ hisobvarag'ida shakllantirilgan.

2.1.11. Imtiyozli davr — berilmaydi.

2.2. Kredit ajratish (moliyalashtirish) Qarz oluvchi/Garov taqdim qiluvchi tomonidan majburiyatlar bajarilgan kundan boshlab, Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida 3 (uch) bank kuni ichida, Qarz oluvchining arizasiga ko'ra № _____ hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda to'lov o'tkazish orqali quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

2.2.1. mazkur Shartnomaning 3.1-bandi bajarilgandan so'ng _____ (_____) so'm miqdorida. Ushbu summa mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan Kredit obyektining sotuv qiymatidan _____% miqdorini qoplaydi. Qolgan _____% miqdoridagi qismi shaxsiy mablag'lar hisobidan to'lanadi.

2.3. Kreditni so'ndirish mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-ilovada keltirilgan Shartnoma bo'yicha so'ndirish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar Bankka so'ndirish jadvaliga muvofiq asosiy qarzni so'ndirish uchun nazarda tutilgan sanalarda to'lanadi. So'ndirish jadvali to'lanishi kerak bo'lgan asosiy qarz va joriy foizlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, Qarz oluvchi ushbu ma'lumotlar bilan tanishganligini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

2.4. Agar muddatidan oldin so'ndirish yoki jadval bo'yicha so'ndirish sanasi Bankning dam olish kuniga to'g'ri kelsa, kredit bo'yicha so'ndirish keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

2.5. Ish kunlarida soat 22:00 dan keyin, shuningdek dam olish va/yoki bayram kunlari bank hisobvaraqlariga kiritilgan pul mablag'lari keyingi ish kunida hisobga olinadi.

2.6. Agar Qarz oluvchi mazkur Shartnomada belgilangan sanagacha asosiy qarzni so'ndirmasa, Bank muddatida to'lanmagan qarzdorlik summasini muddati o'tgan ssudalar hisobvarag'iga o'tkazadi. Qarz oluvchi qarzdorlik muddati o'tgan ssudalar hisobvarag'ida bo'lgan har bir kun uchun mazkur Shartnomaning 2.13-bandiga muvofiq belgilangan stavka bo'yicha foiz to'laydi.

2.7. Qarz oluvchidan yoki uchinchi shaxslardan mazkur Shartnoma bo'yicha asosiy qarz va foizlarni so'ndirish hisobiga kelib tushadigan pul mablag'lari yoxud Qarz oluvchining/Kafilning har qanday hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari, to'lov topshiriqnomasidagi ko'rsatmalardan qat'i nazar, mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni so'ndirishga quyidagi tartibda yo'naltiriladi:

2.7.1. muddati o'tgan foizlar (hisoblangan, biroq mazkur Shartnomaning 2.13-bandiga muvofiq so'ndirish kunida to'lanmagan foizlar);

2.7.2. asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikka hisoblangan foizlar;

2.7.3. asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik (mazkur Shartnomaning 1-ilovasida belgilangan kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish sanasi buzilganda yuzaga keladi);

2.7.4. mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik;

2.7.5. neustoyka summasi;

2.7.6. so'ndirilishi kerak bo'lgan joriy hisoblangan foizlar;

2.7.7. asosiy qarz bo'yicha joriy qarzдорlik;

2.7.8. mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlar bo'yicha joriy qarzдорlik.

Agar amalga oshirilgan to'lov summasi Qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, u holda qarz oluvchining qarzдорligi quyidagi ketma-ketlikda so'ndiriladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va kredit uchun muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- kredit uchun joriy hisoblangan foizlar va kredit bo'yicha joriy asosiy qarz to'lovlari;
- muddati o'tgan asosiy qarz uchun oshirilgan foizlar, neustoyka summasi bo'yicha to'lovlar;
- Bankning kredit bo'yicha qarzдорlikni so'ndirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

Qarz oluvchining asosiy qarzni so'ndirish bo'yicha majburiyatlari mazkur Shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan kredit Shartnomasi bo'yicha so'ndirish jadvalida belgilangan sanalardan oldinroq ijro etilishi mumkin.

2.8. Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penya va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish Bank tomonidan to'lovchining arizalarini, Bank farmoyishlarini ijro etish orqali va/yoki Bank tariflariga muvofiq Qarz oluvchi yoki Kafilning barcha depozit hisobvaraqlari yoki bank kartalaridan pul mablag'larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.9. Asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar so'ndirilgan sana — mablag'lar tegishli ssuda hisobvaraqlariga kelib tushgan kun hisoblanadi.

2.10. Kredit bo'yicha qarzдорlikni so'ndirish Bank kassasi yoki maxsus qurilmasi orqali naqd pul shaklida hamda Qarz oluvchining hisobvaraqlaridan Bankning masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish tizimlari yoki to'lov xizmati ko'rsatuvchilar orqali Bank foydasiga pul o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi, bunda Bankda kreditni so'ndirish maqsadlari uchun to'lov maqsadini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lishi shart.

Kredit bo'yicha qarzдорlikni uchinchi shaxslar so'ndirishga haqli. Kafil Bank bilan yozma kelishuvga ko'ra Kreditni qisman yoki to'liq, shu jumladan muddatidan oldin so'ndirishga haqli.

2.11. Qarz oluvchining mazkur Shartnomadan kelib chiqqan asosiy qarz summasini va hisoblangan foizlarni Bankka qaytarish bo'yicha majburiyatlarini ijro etish, agar Uchinchi shaxs Qarz oluvchi bilan tegishli topshiriq orqali bog'langan bo'lsa, to'liq hajmda yoki qisman Uchinchi shaxsga yuklatilishi mumkin.

2.12. Asosiy qarz va foizlarni o'z vaqtida so'ndirish Shartnomaning muhim sharti hisoblanadi.

2.13. Mazkur Shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish muddatlari buzilgan taqdirda, Bank muddati o'tgan qarzдорlik yuzaga kelgan birinchi kundan boshlab to muddati o'tgan qarzдорlik to'liq so'ndirilgunga qadar kredit bo'yicha muddati o'tgan asosiy qarzning amaldagi qoldig'iga yillik ____% (_____) hisobidan

foizlar hisoblaydi. Qarz oluvchiga Bankning qarzdorlikni undirish to'g'risidagi talabi taqdim etilgandan so'ng, Kredit muammoli aktivlar toifasiga o'tkaziladi va u bo'yicha keyingi foizlarni hisoblash qonunchilik hamda Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.14. Kredit bo'yicha asosiy qarz qoldig'iga foizlar har kuni ish kunining oxirida, yilda 365 kun va har bir oydagi amaldagi kunlar sonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Foizlarni hisoblash kredit summasi ajratilgan kundan boshlanadi.

2.15. Qarz oluvchi mazkur Shartnoma shartlariga uning tashabbusi bilan har qanday o'zgartirishlar kiritilganligi uchun Bankka O'zbekiston Respublikasida belgilangan Bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 5 baravari miqdorida bir martalik komissiya to'laydi. Mazkur Shartnoma shartlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qo'shimcha kelishuvlar imzolangan sanadan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida komissiya to'lovi amalga oshiriladi.

2.16. Kreditni so'ndirish jadvalida belgilangan sanalardan oldin asosiy qarzni so'ndirish hisobiga kelib tushgan to'lovlar, mazkur Shartnomaning 2.7-bandiga muvofiq, Bank tomonidan kreditni so'ndirish jadvalida belgilangan kreditni so'ndirish bo'yicha muddatiga ko'ra eng yaqin bo'lgan to'lovlar hisobiga ko'rsatilgan majburiyatlarni so'ndirishga yo'naltiriladi.

2.17. Kreditni muddatidan oldin so'ndirish (so'ndirish jadvalida nazarda tutilgan sanagacha) to'liq hajmda ham, qisman ham amalga oshirilishi mumkin. Muddatidan oldin so'ndirish uchun Qarz oluvchining Bank shakli bo'yicha qog'oz tashuvchida bayon etilgan yoki mobil ilovada Qarz oluvchining roziligi bilan faollashtiriladigan topshiriqnomasi (farmoyishi) talab qilinadi. Kreditni muddatidan oldin qisman so'ndirish Qarz oluvchining so'ndirish jadvalida nazarda tutilgan sanalarda muddatidan oldin so'ndirilgan summalar hisobiga kamaytirilgan keyingi to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarini tugatmaydi.

2.18. So'ndirish uchun «Octomobile» mobil ilovasidan foydalanilgan taqdirda, Qarz oluvchi to'lovni amalga oshirishdan oldin quyidagi so'ndirish usullaridan birini tanlaydi: «Jadval bo'yicha so'ndirish» yoki «Muddatidan oldin so'ndirish». «Jadval bo'yicha so'ndirish» virtual tugmasi tanlangan taqdirda, kiritilayotgan summa mos ravishda 2.7-bandda hamda So'ndirish jadvalida nazarda tutilgan ketma-ketlikda va sanada keyinchalik so'ndirilishi uchun Qarz oluvchining depozit hisobvarag'iga kirim qilinadi. Bunda rejaviy to'lov so'ndirilgandan keyin rejaviy to'lov summasidan ortiqcha bo'lgan pul mablag'lari keyingi rejaviy to'lovlar sanalarida so'ndirilishi uchun Qarz oluvchining ko'rsatilgan depozit hisobvarag'ida qoladi.

Qarz oluvchi tomonidan «Muddatidan oldin so'ndirish» virtual tugmasi tanlangan taqdirda, to'lov summasi mazkur Shartnomaning 2.7-bandida nazarda tutilgan ketma-ketlikda qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltiriladi.

2.19. Bank kredit bo'yicha o'z vaqtida va ixtiyoriy ravishda so'ndirilmagan qarzdorlikni Qarz oluvchining mavjud bank hisobvaraqlari va bank kartalaridan Qarz oluvchining oldindan rozilgisiz, sud tartibisiz yechib oladi. Bunday hollarda, boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar va kartalardan bunday yechib olish munosabati bilan yuzaga kelgan xarajatlar shaklida Bankka yetkazilgan zararni qoplash summasini Bank Qarz oluvchining oldindan roziligini olmasdan yechib oladi. Agar bunday yechib olish Bankning o'zida ochilgan bank hisobvarag'i va/yoki kartasidan amalga oshirilgan bo'lsa, Qarz oluvchi muddati o'tgan qarzdorlikni so'ndirish hisobiga majburiy ravishda yechib olganlik uchun Bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorlarda Bankning komissiya mukofotini to'laydi.

3. KREDITNING QAYTARILISHINI TA'MINLASH, BANKNING HUQUQLARI VA TA'MINOTGA NISBATAN TA'SIR CHORALARI

3.1. Mazkur Shartnomaga muvofiq ajratiladigan kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi: (Quyida ko'rsatilgan bandlarni ularning rasmiylashtirilgan xronologik tartibida ko'rsatish lozim):

a) umumiy summasi _____ (_____/00) so'm bo'lgan _____ garovi bilan. Bank va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan, _____ 20__

yildagi 1-sonli garov narsasi qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq, garov narsasining kelishilgan garov qiymati _____ (_____/00) so'mni tashkil etadi. Kredit bo'yicha ta'minot sifatida taqdim etilayotgan yuqorida ko'rsatilgan garov narsasining aniq garov shartlari Garov shartnomasi bilan belgilanadi;

b) uchinchi shaxs — (Garovga qo'yuvchi)ga tegishli bo'lgan, umumiy summasi _____ (/00) so'm bo'lgan mulk — _____ garovi bilan. Bank, Garovga qo'yuvchi va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan, _____ 20__ yildagi 1-sonli garov narsasi qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq, garov narsasining kelishilgan garov qiymati _____ (_____/00) so'mni tashkil etadi. Kredit bo'yicha ta'minot sifatida taqdim etilayotgan yuqorida ko'rsatilgan garov narsasining aniq garov shartlari Garov shartnomasi bilan belgilanadi;

v) _____ shahar, _____ tumani, _____ ko'chasi, _____ -uy manzilida joylashgan va mulk huquqi asosida mulkdorning nomi ga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk garovi (ipotekasi) (bundan buyon matnda «Garov narsasi» deb yuritiladi) bilan, ro'yxat hamda Bank va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan (Bank, Qarz oluvchi tomonidan imzolangan va Garovga qo'yuvchi nomi ko'rsatilgan holda, agar uchinchi shaxs garovga qo'yuvchi bo'lsa) _____ dagi _____ - №-sonli garov narsasi qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq kelishilgan garov qiymati _____ raqamlar bilan summa (so'z bilan summa) so'mni tashkil etadi. Garovning (ipotekaning) aniq shartlari tegishli ravishda notarial tartibda tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi Garov narsasini sug'urta shartlari Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qildirish va ushbu sug'urtaning amal qilishini mazkur Shartnomaning butun amal qilish davri davomida ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda Bank foyda oluvchi hisoblanadi. Tegishli ravishda lozim darajada rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va Garov narsasining notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov (ipoteka) shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka **(sana) gacha / mazkur shartnoma bo'yicha kredit ajratilgunga qadar / mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqam va so'z bilan) kalendar kuni ichida taqdim etilishi shart.**

g) mulkdorning nomi ga tegishli bo'lgan, nominal qiymati _____ raqamlar bilan summa (so'z bilan summa) so'm bo'lgan, _____ raqamlar bilan (so'z bilan) dona miqdordagi emitentning nomi aksiyalari garovi (bundan buyon matnda «Garov narsasi» deb yuritiladi) bilan, Bank va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchining nomi tomonidan imzolangan — agar uchinchi shaxs garovga qo'yuvchi bo'lsa) _____ dagi № _____ -sonli garov narsasi qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq kelishilgan garov qiymati _____ raqamlar bilan summa (so'z bilan summa) so'mni tashkil etadi. Garovning aniq shartlari Bank va Qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan (Bank, Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchining nomi o'rtasida tuzilgan — agar uchinchi shaxs garovga qo'yuvchi bo'lsa) tegishli garov shartnomasida belgilanadi.

d) kafilning nomi (bundan buyon matnda «Kafil» deb yuritiladi)ning _____ raqamlar bilan summa (so'z bilan summa) so'm summasidagi kafilligi bilan. Kafillikning aniq shartlari Bank, Qarz oluvchi va Kafil o'rtasida tuzilgan tegishli kafillik shartnomasida ko'rsatiladi.

e) mulkdorning nomi ga tegishli bo'lgan, rusumi « _____ », ishlab chiqarilgan yili _____, rangi _____, dvigatel raqami: _____, kuzov _____, davlat raqami _____ bo'lgan **avtomobil/maxsus texnika** garovi (bundan buyon matnda «Garov narsasi» deb yuritiladi) bilan, ro'yxat hamda Bank va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan (Bank, Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchining nomi tomonidan imzolangan — agar uchinchi shaxs garovga qo'yuvchi bo'lsa) _____ dagi №-sonli garov narsasi qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq kelishilgan garov qiymati _____ raqamlar bilan summa (so'z bilan summa) so'mni tashkil etadi. Garovning aniq shartlari tegishli ravishda notarial tartibda tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi «Garov narsasini» sug'urta shartlari Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qildirish va ushbu sug'urtaning amal qilishini mazkur shartnomaning butun amal qilish davri

davomida ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda Bank foyda oluvchi hisoblanadi. Tegishli ravishda lozim darajada rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va «Garov narsasining» notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka **“sana” gacha / mazkur shartnoma bo'yicha kredit ajratilgunga qadar / mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqam va so'z bilan) kalendar kuni ichida taqdim etilishi shart.**

j) Qarz oluvchi tomonidan *sotuvchining nomi* dan _____ yildagi №__-sonli shartnomaga asosan kredit mablag'lari hisobidan *raqamlar bilan summa (so'z bilan summa)* so'm summasiga sotib olinayotgan **avtomobil/maxsus texnika** garovi (bundan buyon matnda «Garov narsasi» deb yuritiladi) bilan. Garov narsasi *raqamlar bilan summa (so'z bilan summa)* so'm kelishilgan garov qiymati bo'yicha qabul qilinadi. Garovning aniq shartlari tegishli ravishda notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi «Garov narsasini» sug'urta shartlari Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qildirish va ushbu sug'urtaning amal qilishini mazkur shartnomaning butun amal qilish davri davomida ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda Bank foyda oluvchi hisoblanadi. Tegishli ravishda lozim darajada rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va «Garov narsasining» notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka **“sana” gacha / mazkur shartnoma bo'yicha kredit ajratilgunga qadar / mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqam va so'z bilan) kalendar kuni ichida taqdim etilishi shart.**

z) sug'urta kompaniyasi (sug'urta kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq nomi) (bundan buyon matnda «Sug'urtalovchi» deb yuritiladi) tomonidan kredit qaytarilmasligi xavfini *raqamlar bilan summa (so'z bilan summa)* so'm summasiga sug'urta qilish bilan. **(Sana) gacha / mazkur shartnoma bo'yicha kredit ajratilgunga qadar / mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab (kunlar soni raqam va so'z bilan) kalendar kuni ichida Bank Sug'urtalovchi bilan raqamlar bilan summa (so'z bilan summa) so'm summasiga kredit qaytarilmasligi xavfini sug'urta qilish shartnomasini tuzadi va Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotini to'laydi, Qarz oluvchi esa Bank tomonidan sug'urta mukofoti to'langan kuni to'langan sug'urta mukofoti summasini Bankka qoplab beradi.**

i) Garov depoziti _____ .

3.2. Notarial tartibda tasdiqlanadigan garov (ipoteka) shartnomasini rasmiylashtirish joyini qidirish va tanlash majburiyati, garov bitimining tashkil etilishi va to'liq o'tkazilishini ta'minlash, shuningdek, garov bitimini notarial tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish bilan bog'liq xarajatlar Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchi zimmasiga yuklatiladi.

3.3. Bank tomonidan garov (ipoteka) shartnomasini rasmiylashtirish, tayyorlash va tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni Bankka to'liq va o'z vaqtida taqdim etish hamda tegishli shaxslarning kelishini ta'minlash majburiyati Qarz oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

3.4. Garovning batafsil tavsifi va uning shartlari Garov narsasining tegishli garov (ipoteka) shartnomasi bilan belgilanadi.

3.5. Bank mol-mulkni ushlab qolish va keyinchalik unga undiruvni qaratish maqsadida, Bankning kredit mablag'lari hisobidan sotib olingan mol-mulkni Qarz oluvchidan talab qilib olish va olib qo'yish huquqiga ega. Qarz oluvchi mazkur Shartnomani imzolash orqali yuqoridagilarga o'z roziligini bildiradi va Bankning ushbu huquqini tan oladi.

3.6 Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar bajarilmagan va/yoki Garovga qo'yuvchi tomonidan garov shartnomasi shartlari buzilgan holatlar yuzaga kelganda, Bank tegishli majburiyat bajarilgunga qadar Qarz oluvchi yoki Garovga qo'yuvchining mol-mulkini ushlab turish huquqiga ega. Mol-mulkni ushlab turgan Bankning talabi garov bilan ta'minlangan talablarni qondirish uchun nazarda tutilgan hajm va tartibda uning qiymatidan qondiriladi

3.7 Garov oluvchisi sifatida Bankning talablarini garovga qo'yilgan mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan qondirishga, agar bu ipoteka shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa yoki garov

narsasiga undiruvni qaratish uchun asoslar yuzaga kelganidan keyin tuzilgan, notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv asosida yo'l qo'yiladi.

3.8 Bank o'z xohishiga ko'ra o'zining talab qilish huquqlarini yo Kafilga, yo sug'urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza bilan Sug'urtalovchiga, yoki Qarz oluvchiga nisbatan qo'llaydi. Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash to'g'risida talab qo'yilishi Bank tomonidan Qarz oluvchi yoki Kafilga kreditni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida talab qo'yish imkoniyatini istisno etmaydi.

3.9 Garov/ta'minot narsasi (narsalari)ga va/yoki uning (ularning) bir qismi (qismlari)ga undiruv qaratilganda, Bank o'z xohishiga ko'ra birinchi navbatda undiruv qaratiladigan obyektни bir tomonlama tartibda tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Garov/ta'minot narsasi obyektlaridan biriga va/yoki uning (ularning) bir qismi (qismlari)ga undiruv qaratilishi Bankning boshqa garov/ta'minot narsasi obyekti (obyektlari)ga va/yoki uning (ularning) bir qismi (qismlari)ga ham undiruv qaratishini cheklamaydi.

3.10 Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javob beradi.

3.11 Garovga taqdim etilayotgan mol-mulkni sug'urta qilish va kredit qaytarilmasligi (so'ndirilmasligi) xavfini sug'urta qilish shartnomari bo'yicha sug'urta mukofoti to'liq yoki qisman Qarz oluvchining yoki Bankning shaxsiy mablag'lari hisobidan to'lanishi mumkin. Sug'urta mukofoti Bank tomonidan to'langanda, Qarz oluvchi Bank mazkur to'lovni amalga oshirgan sanadan boshlab 1 (bir) kalendar kuni ichida Bank tomonidan to'langan sug'urta mukofoti summasini Bankka to'liq qoplab beradi.

4. QARZ OLUVCHI BILAN HAMKORLIK QILISH TARTIBI

4.1. Bank tomonidan muddati o'tgan qarzdorlikni undirish bo'yicha tadbirlar tashkil etilganda, Bank qonunchilikda belgilangan talablar va cheklovlarga rioya qilinishini ta'minlaydi.

4.2. Qarzdorlikni qaytarishga qaratilgan choralarni amalga oshirishda Bank Qarz oluvchi bilan quyidagi shakllarda hamkorlik o'rnatishi mumkin:

- shaxsan murojaat qilish, telefon qo'ng'iroqlari (to'g'ridan-to'g'ri muloqot);
- vositachilar yoki uchinchi shaxslar orqali ma'lumot uzatish;
- Qarz oluvchining ro'yxatdan o'tgan manziliga xat yuborish;
- Qarz oluvchi (yoki Kafil) bilan muzokaralar o'tkazish va kelishuvlarni bayonnoma shaklida rasmiylashtirish.

4.3. Bank Qarz oluvchiga kreditni olish jarayonida taqdim etilgan har qanday aloqa vositalaridan foydalangan holda qarzdorlikni so'ndirish zaruriyati va Kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlarini haqida xabar beradi. Bunday xat va xabarlar Qarz oluvchiga pochta xizmati, SMS-xabarlar hamda elektron pochta va Telegram, WhatsApp ijtimoiy messenjerlari orqali yuborilishi mumkin. Bildirishnoma yuborilgan sana — bildirishnomali buyurtma xat topshirilgan sana yoki elektron xabar yuborilgan sana hisoblanadi.

4.4. Qarz oluvchi bilan muloqot davlat tilida yoki shartnoma tilida amalga oshirilishi lozim.

5. BANK HUQUQLARI

5.1. Kreditlash jarayonida Bank Qarz oluvchidan kreditlanayotgan loyihani asoslovchi hujjatlarni, shu jumladan kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan hujjatlarni taqdim etishni talab qilish, Qarz oluvchining moliyaviy ahvolini, kreditdan maqsadli foydalanilishini va kreditning qaytarilishi ta'minlanganligini tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshirishlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.2. Bank Qarz oluvchining moliyaviy ahvolini, kredit bo'yicha qarzdorlikning qaytarilishi ta'minlanganligini, kredit yuklamasining Qarz oluvchining joriy moliyaviy holatiga muvofiqligini, Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish uchun kutilayotgan pul mablag'lari kelib

tushishining taxminiy muddatlari va miqdorlarini, Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatsizligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini (shu jumladan, ish joyini yo'qotish natijasida daromadlarning kamayishi, ularga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ish haqi va boshqa daromadlarni olishning kechikishi, ish joyining o'zgarishi, sog'lig'ining yomonlashishi) tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshirishlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.3. Agar Qarz oluvchining arizasi Shartnoma shartlariga va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa, Bank uning arizasiga asosan to'lovlarni kredit hisobidan amalga oshirishni rad etishga haqli.

5.4. Asosiy qarzni, foizlarni so'ndirish, jarima va penyalarni to'lash, Bank tomonidan to'langan sug'urta mukofotini qoplash muddatlari kelganda va/yoki Shartnoma bo'yicha boshqa to'lovlar yuzaga kelganda, Bank Qarz oluvchining yoki Kafilning barcha depozit hisobvaraqlaridan mablag'larni akseptsiz va bahssiz tartibda yechib olish bo'yicha chaqirib olinmaydigan va so'zsiz huquqqa ega bo'ladi.

5.5. Qarz oluvchidan asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni o'z ichiga olgan muddati o'tgan qarzдорlik summasini undirish to'g'risidagi talab Bank tomonidan tomonlar imzolagan o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi va boshqa zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, sud buyrug'ini berish haqida ariza berish yo'li bilan sudga taqdim etilishi mumkin.

5.6. Quyidagi holatlarda:

- Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha, shuningdek, Qarz oluvchining Bank oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa majburiyatlari doirasida qabul qilingan majburiyatlar buzilganda va/yoki bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;

- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;

- Garov narsasi (narsalari) va/yoki uning (ularning) bir qismi yo'q qilinganda, qiymati pasayganda, qisman yoki to'liq yo'qotilganda;

- Bank Qarz oluvchi tomonidan noto'g'ri (ishonchsiz) ma'lumotlar taqdim etilganligi faktlarini aniqlaganida;

- Qarz oluvchi bank nazorati yoki tegishli tekshiruvdan bo'yin tovlaganda;

- Bank tomonidan kreditdan maqsadsiz foydalanilganligi faktlari aniqlanganda;

- Asosiy qarz, foizlar va/yoki mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha boshqa to'lovlar o'z vaqtida so'ndirilmaganda;

- Kreditning qaytarilmaslik xavfini oshiruvchi har qanday omillar yuzaga kelganda;

- Qarz oluvchi tomonidan hisobvaraqlar va/yoki hisobvaraqlar yopilib, boshqa Bankka o'tkazilganda;

- Garov narsalarini sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta badallari to'lanmaganda;

- Kredit qaytarilmasligi xavfini sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi to'xtatilganda yoki bekor qilinganda;

- Mazkur Shartnomaning boshqa shartlari buzilganda va/yoki bajarilmaganda

Bank quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- Kreditni sud va suddan tashqari tartibda muddatidan oldin undirishga taqdim etish;

- Kreditni muddatidan oldin undirishga taqdim etish, shu jumladan undiruvni garov narsasi (narsalari)ga va/yoki uning (ularning) bir qismi (qismlari)ga qaratish yo'li bilan va/yoki Kafil hamda Sug'urtalovchiga talablar qo'yish;

- Mazkur Shartnoma bo'yicha yangi summalarni va/yoki yangi kreditlarni ajratishni to'xtatish;

- Qarz oluvchining/Kafilning Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'idan mablag'larni akseptsiz va bahssiz tartibda yechib olish hamda ularni mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni so'ndirishga yo'naltirish, ular mavjud bo'lmaganda esa — har qanday boshqa hisobvaraqlardan, shu jumladan boshqa Banklardagi hisobvaraqlardan yechib olish.

5.7. Ajratilgan kreditdan maqsadli foydalanilishini, shuningdek, garov ta'minotining holatini, shu jumladan joyiga chiqqan holda tekshirishni amalga oshirish.

5.8. Bank mazkur Shartnomada nazarda tutilgan holatlarda va tartibda Qarz oluvchi uchun Bazaviy stavkani qo'llash huquqiga ega.

5.9. Bank mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini Qarz oluvchining roziligi bilan boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga haqli, qonunchilikda bunday rozilik talab etilmaydigan holatlar bundan mustasno.

5.10. Ilgari ajratilgan kreditning qaytarilishi natijasida Qarz oluvchining hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'lari Bank tomonidan muddatidan oldin so'ndirilgan mablag' sifatida kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga mustaqil ravishda yo'naltiriladi.

5.11. Bank mazkur Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) oy davomida Qarz oluvchi tomonidan kreditdan foydalanilmagan taqdirda, mazkur Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli, bunda Qarz oluvchi bekor qilinishi taxmin qilinayotgan sanadan 3 (uch) kalendar kuni oldin yozma ravishda ogohlantiriladi. Yozma ogohlantirish yuborilgan sana — u topshirilgan sana yoki pochta jo'natmasi sanasi hisoblanadi.

5.12. Qarz oluvchi tomonidan Kreditni qaytarish muddatlari buzilgan taqdirda, Bank Shartnomani ijro etishdan bir tomonlama tartibda voz kechish va Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

5.13. Bank o'z xohishiga ko'ra mazkur Shartnomada ko'rsatilgan har qanday huquq/talablarni qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Ushbu huquq/talablarning qo'llanilmasligi yoki qisman qo'llanilishi ushbu huquq/talablardan voz kechilganini anglatmaydi va ular mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

6. BANK MAJBURIYATLARI

6.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

6.1.1. Qarz oluvchiga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan kredit summasi doirasida va mazkur

Shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida kredit mablag'larini ajratish;

6.1.2. Kreditning foydalanilgan qismiga mazkur Shartnomaning 2-bobiga muvofiq foizlar hisoblash;

6.1.3. Qarz oluvchiga mazkur Shartnoma aslining bir nusxasini, shuningdek, Qarz oluvchining so'roviga ko'ra uning nusxasini taqdim etish.

6.2. Kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng, agar Kredit bo'yicha moliyalashtirish boshlanish muddatlari o'zgarsa yoki Kredit shartnomasi shartlari tomonlar tomonidan qayta ko'rib chiqilsa (shu jumladan, kredit restrukturizatsiya qilinganda) yoxud Qarz oluvchi tomonidan Kredit muddatidan oldin qisman so'ndirilganda, Kredit bo'yicha to'lovlarni so'ndirish sanalari va muddatlari, shuningdek, Kredit bo'yicha oraliq to'lovlar summasi o'zgargan taqdirda, Bank so'ndirish jadvalini yangilaydi va uni Bankning mobil ilovasiga joylashtiradi yoki Qarz oluvchining so'roviga ko'ra Bank filialida taqdim etadi. Bunda Kreditni so'ndirishning yangilangan jadvali ilgari mavjud bo'lgan jadvalni bekor qiladi.

6.3. Bank o'zining kredit bo'yicha talab qilish huquqlarini sug'urta kompaniyasiga o'tkazgan (subrogatsiya) taqdirda, bunday o'tkazish amalga oshirilgan sanadan boshlab uch ish kuni ichida bu haqda Qarz oluvchini (va agar mavjud bo'lsa, kafillarni) kelishilgan aloqa kanallari orqali yozma shaklda ogohlantirishi shart.

6.4. Bankning Kredit ajratish bo'yicha majburiyati Qarz oluvchi tomonidan ipoteka narsasini yo'qotish va shikastlanish xavflaridan sug'urta qilish shartnomasi, sug'urta polisi taqdim etilgandan, shuningdek, kredit hisobidan sotib olinayotgan ko'chmas mulk garovga (ipotekaga) qo'yilgandan keyin yuzaga keladi.

6.5. Bank Qarz oluvchini firibgarlik, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik belgilari va frod-hodisalar aniqlangani to'g'risida mavjud aloqa kanallari orqali xabardor qilishi shart.

7. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI

7.1. Mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq kredit olish va undan mazkur Shartnoma shartlarida belgilangan kreditlash muddati davomida foydalanish.

7.2. Qarz oluvchi kreditni mazkur Shartnomada belgilangan muddatlardan oldin so'ndirish huquqiga ega.

7.3. Kredit ajratilgunga qadar bu haqda Bankni yozma ravishda ogohlantirgan holda kreditni qisman yoki to'liq olishdan voz kechish, bunda mazkur yozma ogohlantirish sanasigacha yuzaga kelgan barcha o'zaro hisob-kitoblarni Bank bilan amalga oshirish shart.

7.4. Bankdan Kreditning holati to'g'risida ma'lumot va tegishli maslahatlar olish.

7.5. Kredit olgunga qadar kreditlash shartlari va Kredit ajratish tartibi bilan tanishib chiqish.

7.6. Kreditni so'ndirishda muammolar yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi kreditni qaytarishning muqobil mexanizmlarini aniqlash va muhokama qilish uchun Bankka murojaat qilishga haqli (masalan, kredit shartlarini o'zgartirish, uyni ixtiyoriy ravishda sotish yoki keyinchalik unga bo'lgan mulk huquqini qayta rasmiylashtirish orqali kredit bo'yicha qarzni boshqa shaxsga o'tkazish va h.k.).

8. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI

Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

8.1. Kreditdan faqat mazkur Shartnomada nazarda tutilgan maqsadli yo'nalishga muvofiq ravishda foydalanish hamda maqsadli foydalanilganini tasdiqlash uchun Bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etish:

8.1.1. mazkur Shartnoma bo'yicha ajratiladigan kredit mablag'lari hisobidan mol-mulk to'lovi amalga oshirilgan Shartnomaning nusxasini;

8.1.2. sotib olinayotgan ko'chmas mulkning realizatsiya qilinganini (topshirilganini) tasdiqlovchi hujjatlar nusxasini — ular rasmiylashtirilgan kundan boshlab 60 kalendar kundan oshmagan muddatda.

8.2. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy tamoyillariga: muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlikka rioya qilish.

8.3. Mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda asosiy qarzni, foizlarni so'ndirishni, jarimalar, penya va/yoki mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni amalga oshirish.

8.4. Bankning mazkur Shartnomaning 5.1-bandida ko'rsatilgan nazorat funksiyalarini amalga oshirishi uchun:

8.4.1. Bank, uning xodimlari va huquqiy vorislari tomonidan Qarz oluvchi taqdim etgan ma'lumotlarni har qanday manbalar, axborotlar va hujjatlardan foydalangan holda, shu jumladan yashash, ish joyiga va h.k.larga tashrif buyurish yo'li bilan tekshirish hamda qayta tekshirish imkoniyatini yaratib berish;

8.4.2. Bank tomonidan Garov narsasining mavjudligi, saqlanish sharoitlarini tekshirishga to'sqinlik qilmaslik va barcha sharoitlarni yaratib berish, tegishli so'rov yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida Garov narsasi bo'yicha Bank talab qilgan barcha ma'lumotlarni taqdim etish. Yozma so'rov yuborilgan sana — u topshirilgan sana yoki pochta jo'natmasi sanasi hisoblanadi;

8.4.3. Bankning yozma so'rovi bo'yicha, mazkur so'rov yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida mazkur Shartnoma doirasida ajratilayotgan kreditdan maqsadli foydalanilganligi, Garov narsasini ko'zdan kechirish hamda kredit monitoringi dalolatnomalarini o'z vaqtida imzolash. Yozma so'rov yuborilgan sana — u topshirilgan sana yoki pochta jo'natmasi sanasi hisoblanadi;

8.4.4. Bankning yozma so'rovi bo'yicha, mazkur so'rov yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida shaxsiy ma'lumotlarni, biografik ma'lumotlarni yoki boshqa axborotlarni taqdim etish. Yozma so'rov yuborilgan sana — u topshirilgan sana yoki pochta jo'natmasi sanasi hisoblanadi.

8.5. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashishiga hamda Qarz oluvchi tomonidan Bank oldidagi mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi xavfi yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyat va choralarni o'z zimmasiga olmaslik.

8.6. Aksiya ishtirokchisi maqomi yo'qotilganligi to'g'risida Bankni zudlik bilan xabardor qilish.

8.7. Sotuvchi tomonidan pul mablag'lari qaytarilgan taqdirda, kredit hisobidan to'langan pul mablag'larining tegishli hisobvaraqqa Bankka qaytarilishini ta'minlash.

8.8. Mazkur Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq va muddatlarda tegishli Shartnomalarni/hujjatlarni, shuningdek, Kreditni so'ndirish jadvalini tuzish/imzolash/rasmiylashtirish.

8.9. Qarz oluvchi mazkur Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotini tuzilayotgan sug'urta shartnomalariga

muvofig belgilangan muddatlarda va hajmlarda to'lash, sug'urta mukofoti Bank tomonidan to'langan hollarda esa sug'urta mukofoti summasini Bankka qoplab berish majburiyatini oladi.

8.10. Qarz oluvchi Bankning talabiga binoan quyidagi holatlarda kreditning qaytarilishi bo'yicha qo'shimcha ta'minot taqdim etish majburiyatini oladi:

8.10.1. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;

8.10.2. Mazkur Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan garov narsasi (narsalari) va/yoki uning (ularning) bir qismi yo'q qilinganda, qiymati pasayganda, qisman yoki to'liq yo'qotilganda;

8.10.3. Kreditning qaytarilmaslik xavfini oshiruvchi boshqa omillar yuzaga kelganda.

8.11. Qarz oluvchi mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penya va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni to'lash muddati kelganda, Bankka uning Bankdagi har qanday hisobvarag'idan Bank tariflariga muvofiq pul mablag'larini akseptsiz tartibda yechib olish, so'zsiz va chaqirib olinmaydigan huquqni beradi, shuningdek, Qarz oluvchining boshqa Banklardagi hisobvaraqlaridan mazkur Shartnomaning 2.7-bandida nazarda tutilgan ketma-ketlik tartibida yechib olish huquqini taqdim etadi.

8.12. Qarz oluvchi Bankning talabiga binoan, mazkur Shartnoma doirasida ajratilayotgan kredit bo'yicha qarzдорlikni (asosiy qarz, foizlar, jarimalar, penya va boshqa to'lovlar) majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralari ko'rish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olgan holda, Bank ko'rgan barcha xarajatlar va zararlarni Bankka qoplab berish majburiyatini oladi.

8.13. Kreditni olish uchun berilgan arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgarganligi, shu jumladan Qarz oluvchining pasport ma'lumotlari, ro'yxatdan o'tgan manzili, amaldagi yashash joyi, ish joyi, familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgarganligi va/yoki Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa o'zgarishlar yuzaga kelganligi to'g'risida bunday o'zgarishlar yuz bergan sanadan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida Bankni ogohlantirish.

8.14. Bankning mazkur Shartnomada va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan har qanday huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmaslik.

8.15. Qarz oluvchi Bankning yozma rozilgisiz mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxs foydasiga to'liq yoki qisman voz kechishga haqli emas.

8.16. Bank tomonidan to'langan sug'urta mukofoti summasini, sud xarajatlarini, qarzдорlikni majburiy undirish bilan bog'liq xarajatlarni, shuningdek, Kredit ajratilishi munosabati bilan Bank ko'rgan zararlarni Bankka qoplab berish.

8.17. Bankning birinchi talabi bilan, kredit bo'yicha undiruv qaratilishi kerak bo'lgan ko'chmas mulk manzilida ro'yxatdan o'tgan (doimiy/vaqtincha ro'yxatda turgan) shaxslarni ro'yxatdan chiqarishni ta'minlash.

8.18. Bankning rozilgisiz ipoteka narsasini ijaraga (foydalanishga) bermaslik, shuningdek, Kredit hisobidan sotib olinayotgan va Bankka garovga qo'yilayotgan ko'chmas mulkka shaxslarni ro'yxatga qo'ymaslik.

8.19. Qarz oluvchi Bank tomonidan yuboriladigan bildirishnomalarni, shu jumladan mobil ilovadagi PUSH-bildirishnomalarni, firibgarlik, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik belgilari va frod-hodisalar aniqlanganiga oid SMS-bildirishnomalarni diqqat bilan o'rganib chiqish majburiyatini oladi;

- Bank tomonidan aniqlangan firibgarlik belgilari to'g'risida taqdim etilayotgan ma'lumotlarni inobatga olish va ushbu bildirishnomalar olinganidan keyin har qanday to'lov operatsiyalarini tasdiqlashda yuqori darajada ehtiyotkorlik ko'rsatish;
- bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi qurilmaning yo'qolganligi (o'g'irlanganligi) yoki bunday qurilma ustidan uchinchi shaxslar tomonidan nazorat o'rnatilganligi fakti aniqlangan paytdan boshlab zudlik bilan, lekin 1 (bir) kundan kechiktirmasdan Bankni xabardor qilish;
- operatsiya uning rozilgisiz amalga oshirilganligi fakti aniqlangan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida Bankka ushbu fakt to'g'risida xabar berish;
- aloqa uchun zarur bo'lgan kontakt ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, bunday o'zgarishlar yuz bergan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida ularni Bankka taqdim etish;

- Bankning so'roviga ko'ra, Prinsipal operatsiya uning o'zi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilganligi yoki uning topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan bajarilganligi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi;
- Bankka firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

9.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Mazkur Shartnomaning 8.1.2-bandida nazarda tutilgan muddatlarda kreditdan maqsadli foydalanilganini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Qarz oluvchi Bankka bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 5 (besh) baravari miqdorida jarima to'laydi, ushbu jarima memorial order asosida yechib olinadi. Jarimani to'lash Qarz oluvchini mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

9.2. Bank Qarz oluvchining asoslantirilgan talabi kelib tushgan paytdan boshlab yigirma kun ichida mazkur Shartnoma shartlarining buzilishini (xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarni) bartaraf etishi shart. Agar aniqlangan qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, Bank Qarz oluvchiga Kreditdan foydalanilgan bir oy uchun Bankka olinishi kerak bo'lgan foizli daromadining 1% miqdorida neustoyka (penya) to'lashi shart.

9.3. Kredit ajratish bo'yicha majburiyat bajarilmagan yoki o'z vaqtida bajarilmagan taqdirda, Shartnomaning 5.6-bandida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, Qarz oluvchi Bankdan muddati o'tgan har bir kun uchun ajratilmagan Kredit summasining 0,1% miqdorida penya undirish huquqiga ega, biroq bu muddatida ajratilmagan Kredit summasining 5% foizidan oshmasligi kerak.

9.4. Bank texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining o'chishi/shikastlanishi, To'lov tizimlari ishidagi texnik uzilishlar) yuz berganda, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan mablag'larni hisobvaraqa o'tkazish uchun rekvizitlar noto'g'ri/noto'liq ko'rsatilgan taqdirda, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

9.5. Mazkur Shartnomaning 8.4-bandida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Qarz oluvchi Bankka 100 000 (yuz ming) so'm miqdorida jarima to'laydi, ushbu jarima memorial order asosida yechib olinadi.

9.6. Mazkur Shartnomaning 3.1-bandida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Qarz oluvchi Bankka o'z vaqtida taqdim etilmagan ta'minot summasidan har bir muddati o'tgan kun uchun 0,05% miqdorida penya to'laydi. Agar mazkur Shartnomaning 3.1-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi kredit mablag'lari hisobidan sotib olinayotgan obyektlarga tegishli bo'lsa, u holda Qarz oluvchi Bankka garovga qo'yilishi kutilayotgan mol-mulk qiymatidan har bir muddati o'tgan kun uchun 0,05% miqdorida penya to'laydi. Penyaning umumiy summasi mazkur Shartnomaning 2.1.1-bandida ko'rsatilgan kredit summasining 20 (yigirma) foizidan oshmasligi kerak.

9.7. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida Bankka yetkazilgan zarar va ziyonlar uchun mulkiy javobgarlikni zimmasiga oladi.

9.8. Bank mazkur Shartnoma bo'yicha so'ndirilmagan mablag'larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo'shimcha talablar to'lanishini, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan Bankka yetkazilgan barcha ziyon va zararlar Qarz oluvchining ish haqi, uning boshqa pul mablag'lari hamda boshqa likvidli mol-mulki hisobidan qoplanishini talab qilishga haqli.

9.9. Qarz oluvchi masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish tizimlarida va uchinchi shaxslarning mobil ilovalarida o'zi hamda uning qurilmalaridan foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan barcha harakatlar uchun moliyaviy xavf-xatarlar va javobgarlikni mustaqil ravishda o'z zimmasiga oladi.

10. YENGIB BO'LMAS KUCH TA'SIRLARI (FORS-MAJOR)

10.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi uchun, agar ularni bajarish imkoniyatsizligi yengib bo'lmaz kuch holatlari, masalan, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar yoki ijtimoiy-

iqtisodiy holatlar, ya'ni urush holati, blokada, davlat manfaatlari yo'lida import va eksportga qo'yilgan taqiqlar, bosharti ular Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatsa, shuningdek, davlat organlari tomonidan mazkur Shartnoma shartlarining bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikni zimmasiga olmaydilar. Bunday holatda Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmas kuch holatlarining amal qilish vaqtiga qadar kechiktiriladi.

10.2. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan Tomon yengib bo'lmas kuch holatlari boshlangani va tugagani to'g'risida boshqa tomonni zudlik bilan, lekin har qanday holatda ham ular boshlanganidan keyin 10 kundan kechiktirmasdan yozma ravishda ogohlantirishi shart.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Mazkur Shartnoma tomonlar uni imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Bank hamda Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

11.2. Mazkur Shartnoma shartlariga har qanday o'zgartirish kiritish tomonlarning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi va yozma kelishuv shaklida rasmiylashtiriladi, mazkur Shartnomaning 2.14-bandida ko'rsatilgan holat bundan mustasno. Mazkur Shartnomaga tuzilgan har qanday qo'shimcha kelishuvlar, agar ular Bankning xabarisiz tuzilgan bo'lsa va ushbu kelishuvlarda Bankning imzolari hamda muhrlari mavjud bo'lmasa, yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

11.3. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda, bank qaydlari mazkur Shartnoma bo'yicha har ikki tomon majburiyatlarining asosiy isboti bo'lib xizmat qiladi.

11.4. Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, Bankning xohishiga ko'ra, kredit bo'yicha qarzdorlik amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda notarius tomonidan hujjatga qo'yilgan ijro xati asosida undirilishi mumkin.

11.5. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, har ikki tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

11.6. Skoring modellarini qo'llagan holda Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash jarayonida, Bank Qarz oluvchi to'g'risidagi erkin/ochiq manbalarda mavjud bo'lgan har qanday ma'lumotlardan, shuningdek, agar ushbu ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmasa, bunday turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchilardan olingan ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

11.7. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, mazkur Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar, shu jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, to'xtatilishi va haqiqiy emasligi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasining tegishli Fuqarolik sudida Bank joylashgan manzil bo'yicha yoki Javobgar joylashgan manzil bo'yicha yoxud Hakamlik sudining hakamlik sudyasi tomonidan ularning reglamentiga muvofiq hal qilinishi lozim. Bunda sudni tanlash huquqi Bankda qoladi.

11.8. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda, uning barcha huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda uning merosxo'rlariga o'tadi.

11.9. Mazkur Shartnomani imzolash orqali Qarz oluvchi:

11.9.1. kreditlash shartlari, tomonlarning majburiyatlari to'g'risida xabardor ekanligini hamda so'ndirish jadvali bilan tanishganligini va unga rozi ekanligini tasdiqlaydi;

11.9.2. o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni Bankka yuridik, buxgalteriya, auditorlik, axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi uchinchi shaxslarga taqdim etilishiga rozilik bildiradi, agar bu mazkur xizmatni ko'rsatish uchun zarur bo'lsa va mazkur shaxslar mijoz haqidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik yoki shaxsiy maqsadlarda foydalanishdan tiyilishga majbur bo'lsa, shuningdek, kreditlash va kreditni so'ndirish jarayonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarga taqdim etilishiga rozilik bildiradi. Mazkur rozilik Shartnoma imzolangan paytdan boshlab O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan shaxsiy ma'lumotlarni saqlash muddatlari tugagunga qadar amal qiladi;

11.9.3. Mazkur shartnoma shartlariga va Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro etilishiga oid ma'lumotlarni Kredit byurosiga hamda Kredit axborotining davlat reyestriga taqdim etilishiga rozilik bildiradi;

11.9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq xavf-xatarlar, shu jumladan majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan neustoyka (jarima, penya) va buning natijasida Qarz oluvchining xarajatlari summasi oshishi ehtimoli to'g'risida xabardor ekanligini tasdiqlaydi.

11.9.5. Qarz oluvchi tomonidan bank so'roviga ko'ra taqdim etilgan ma'lumotlarning tuzilayotgan Shartnoma shartlariga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'siri to'g'risida ogohlantirilgan;

11.9.6. taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiyadan o'tkazish (shaxsni tasdiqlash) hamda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro etilishi masalalari yuzasidan mazkur Shartnomaning 11.10-bandida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali u bilan bog'lanishlariga rozilik bildiradi.

11.10. Shartnomani tuzish orqali Tomonlar o'zaro aloqa o'rnatish, bog'lanish va axborot (xabar) almashishning quyidagi vositalarini kelishib oldilar:

Qarz oluvchi: Mobil telefon (SMS-xabarlar va Telegram uchun): _____
Elektron pochta: _____

Bank: Elektron pochta: info@Octobank.uz, tel. +998 71 202 33 33.

11.11. Tomonlar elektron shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligiga kelishadilar. Shunga ko'ra, elektron shaklda tuzilgan hujjat tomonlar o'rtasida nizolar kelib chiqishi uchun dastlabki shart bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

11.12. Mazkur Shartnoma har bir tomon uchun bir nusxadan, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, IMZOLARI VA BANK REKVIZITLARI

<u>«Bank»</u>	<u>«Qarz oluvchi»</u>
«Octobank» AJ v/h № 29801000700000980333 Bank kodi: 00980 STIR: 203644820 Manzil: Toshkent sh., Furqat ko'chasi, 2-uy Tel: +998 (____) _____ «Octobank» AJ Amaliyot boshqarmasi boshlig'i F.I.O. _____ (imzo)	F.I.O. _____ Manzil: _____ Tel: +998 (____) _____ v/h № 29801000700000980333 MFO № 00980 «Octobank» AJ Amaliyot boshqarmasida JShShIR: _____ Qarz oluvchi: _____ (imzo)

